

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASI VA HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGI

Azimova Nafisa Sunnatovna

Qashqadaryo viloyati Kitob tuman

MMTBga qarashli 2 -umumiy o'rta ta'lim maktabining psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola oldingi va hozirgi zamon psixologiyasi, Hozirgi davrda psixologlarga qo'yilgan muhim vazifalar haqida.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixologiya taraqqiyoti, psixolog, profilaktika, psixodiagnostika, psixologiya tarmoqlari.

Hozirgi kunda jahon psixologiyasi fani o'zini o'zi boshqarish va kamol toptirish, o'zini o'zi qo'lga olish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi tarbiyalashga doir boy materiallar to'plagan. Bu o'z navbatida inson munosabati, maqsadi, holati va kechinmalarining o'zgarishi va yangidan yaralishi haqida ilmiy-tatbiqiy ma'lumotlar beradi, kundalik turmush psixologiyasi rangbarangligini ta'minlab turadi. Psixologiya fani inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko'chirish, kamol toptirish, rivojlanish dinamikasini ta'minlash, yangi sifat bosqichiga o'tishini qayd qilish imkoniyati borligi bilan o'ta amaliy, tatbiqiy fanga aylangandir. Psixologiya fani sohalari uning amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi (huquqshunoslik psixologiyasi, klinik psixologiya, mehnat psixologiyasi, savdo psixologiyasi, sotsial psixologiya, pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya, sport psixologiyasi va hokazo). Psixologiya amaliy, tatbiqiy jihatdan o'z predmetiga ega bo'lib, amaliy sotsial psixolog, muhandis psixolog, oilaviy psixoterapevt, tibbiyot psixologi, maktab psixologi kabi sohalarni o'z ichiga qamrab olgandir. Psixologiya o'rganadigan hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bir muncha qiyinroq. Bu hodisalarni tushunish ko'p jihatdan psixologiya fanini egallash zaruratiga duch

kelgan odamlarning dunyoqarashiga bog'liqdir. Psixologiya inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlari, ko'rinishlari va rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini tadbiq etadi. Ruhiy hodisalar "idrok", "xotira", "tafakkur", "iroda", "hissiyot" va boshqa shu kabi nomlar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda psixika, kishining psixik ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ataladigan tushunchalarni hosil qiladi.



«Psixologiya» so'zi grekcha «psyuxe» (jon, ruh) va «logos» (so'z, ilm) so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «jon, ruh ilmi» demakdir. Psixologiya - tabiiy va ijtimoiy fan sifatida voqelikning alohida sohasi bo'lgan psixika hayot sohasini o'rganadi. Psixologiya fanining asosiy vazifasi - psixik hodisalarni o'rganish va ilmiy asoslashdir. Axir barcha narsalar kabi psixik hodisalar ham ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. Psixologiya shu qonuniyatlarni ochishga, ularning tarkib topishi va rivojlanishini ochishga qaratilgandir. Ushbu qonuniyatlarni bilish, ularni boshqarish, tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri olib borishga yordam beradi. Inson ijtimoiy zotdir, shuning uchun uning psixik xislatlari ijtimoiy hayot sharoitining hal qiluvchi ta'siri ostida tashkil topadi. Insonning psixikasi, ongi uning jamiyatdagi hayoti va faoliyati sharoiti bilan bog'liq holda taraqqiy etadi. Shuning uchun ham ijtimoiy fandir. Uning tabiiy fan ekanligi shundaki, tabiatdagi rang-barang narsa va hodisalar materiyaning turli shakllaridir. Materiya doim harakatda va rivojlanishda bo'lib, turli-tuman xususiyatlarga egadir. Materiya abadiy mavjuddir, u faqat bir shakldan ikkinchi

shaklga aylanishi mumkin. Materiya o'z taraqqiyotining maxsus yuqori bosqichida (tirik organizmlarning asab tizimi hamda miyaga ega bo'lgan holda) psixik sifatlar kasb etgan.

«Psixik jarayonlar», «psixik holatlar», «xususiyatlar» haqidagi fikrlar keyinchalik hayot jarayonining o'zgarishi, rivojlanishida astasekinlik bilan yuzaga kelgan. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida hayvonot dunyosida va odamlarda psixikaning paydo bo'lishi, uning xususiyatlari, rivojlanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan fandır. Demak, psixika nima? Biz tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni sezamiz, idrok qilamiz, xotirada olib qolamiz, tasavvur va xayol qilamiz, fikr yuritamiz va hokazolar. Bularni biz bir og'iz so'z bilan «psixika» deb ataymiz. Psixika miyaning xususiyati bo'lib, bu xususiyat tevarak-atrofdagi olamni aks ettirishdan iborat, ya'ni obyektiv ravishda mavjud narsalar va hodisalarni aks ettiradi. Odam tevarak-atrofdagi olamni ko'zguda aks ettirish emas, balki faol aks ettiradi, ya'ni tevarak-atrofdagi voqelikni faoliyat jarayonida, tabiat va atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish jarayonida bilib oladi. Ana shu jarayonda odamda sezgi, idrok sodir bo'ladi. Ular odamning sezgi a'zolari orqali miyasiga ta'sir ko'rsatib, ongida aks etgan narsa va hodisalarning, xususiyatlarning aksidir. Psixika yuksak darajada tashkil topgan miyaning xossasidir. Hayvon va odamlarga xos bo'lgan asab tizimi yuksak darajada tashkil topgan materiyadir. Psixikaning bevosita moddiy asosi odamning bosh miyasidir. Odam psixikasi, ongi bosh miya funksiyasidir. Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida paydo bo'ladi. Materiya taraqqiy etib borgan sari turli xossalar, qonuniyatlar — mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va boshqa xossalar paydo bo'ladi. Organik olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichidagina materiyaning psixika deb ataladigan jarayonlari, ya'ni, sezgi, idrok, xotira, tafakkur deb ataladigan alohida xossalari vujudga keladi.



Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning obyektiv voqelikni aks ettirishdan iborat bo'lgan alohida xossasidir. Ibn Sino jahonda birinchi bor psixologiya fanida tajriba amalga oshirgan alloma hisoblanadi. U emotsional holatlar bo'yicha dastlabki tajribalarni amalga oshirgan. Uning «Tadbiri manozil» asarida ta'lim-tarbiyada uning psixologik asoslariga alohida e'tibor bergan. Bu asarda alohida bob bo'lib, bu bob bolalarni tarbiyalash, maktabda o'qitish deb nomlanadi. Ibn Sino birinchi bor tarbiyada suhbat metodini qo'llashni taklif etadi. Bolalarni o'qitishda va tarbiyalashda bir guruhda yoki jamoada tarbiyalansa, ular faoliyat turlarini amalga oshirishda bir-biriga moslashadi, bir-biriga hurmat-e'tibori kuchayadi va jamoaning ta'sirida keraksiz odatlarni yo'qotadi deb ta'kidlaydi. Bu bilan u birinchi bor ijtimoiy psixologiya asoslariga ham asos soldi. Bundan tashqari Ibn Sino tarbiya metodlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Tarbiya metodlaridan oila tarbiyasi, oilada bola tarbiyasini amalga oshirishda regional xususiyatlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino shaxs taraqqiyotida musiqaning o'rni haqida ham to'xtalib o'tadi. U allaning ahamiyati haqida shunday deydi: «Aytilgan qo'shiqning so'zlari tanaga qaratilgan bo'lsa, uning ohangi bolaga qaratilgan», -deydi. Ibn Sino Aristotel va Forobiy ta'limotiga asoslanib ruh va tana haqidagi ta'limot doirasida fikr yuritgan. Chunki u ham o'zidan oldingi allomalar kabi tana va ruh haqidagi ta'limotni jon ta'limoti doirasida ta'kidlaydi.

Zamonaviy psixolog nimalarni bilishi va nimalarni bajara olishi kerak?

Mavjud muammolarga tashxis qo'yish va ularni bartaraf eta olish;

- Tashxis uchun muhim bo'lgan test. So'rovnomalarni tuzish, o'tkazish va taxlil qilishni bilish;

- Psixologik tadqiqotlar va maslahatlar o'tkazish;

- Mijozning psixologik holatini taxlil qilish;

- Shaxsning psixologik portretini chizish;

- Treninglar tashkil etish;

- Markaziy asab tizimining anatomiyasi va tana tuzilishini bilishi ;

- Umumiy kasalliklarning belgilari va ayniqsa, nevrologiya bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni bilishi kerak.

Chunki psixosomatik holatlar ko'p uchraydi. - Hujjatlarni yuritish. Amaliyotchi psixolog nimani davolaydi?

Bu soha mutaxassislari insonlardagi jiddiy ruhiy kasalliklar bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni ruhan sog'lom insonlardagi shaxsiy, oilaviy va kasbiy qiyinchiliklarni yengishda yordamlashadi. Amaliyotchi psixolog insonning umumiy psixologiyasi, yosh va ijtimoiy psixologiyani yaxshi bilishi zarur. Shu bilan birga psixoemotsional zo'riqish va stressli vaziyatlardan chiqish bo'yicha psixodiagnostika, yordam va maslahat xizmatlarini ko'rsatadi.

Psixolog kasbining kamchiliklari:

- Uzoq vaqt o'qish. Ya'ni amaliyotchi psixolog oliy ma'lumotli bo'lishi, amaliyotni o'tashi, katta tajriba orttirishi, doimiy ravishda rivojlanishi va malaka oshirishi kerak.

- Doimiy terapiyada bo'lish zarurati

- Doimiy negati va muammolar ichida bo'lganligi uchun hissiy zo'riqishda bo'ladi.

- Yuqori mas'uliyatda bo'lishi talab etiladi.

Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari-insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar. Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bugungi kunda ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Faqatgina ularning inshoatlarigina yangilanib qolmasdan, balki ularning ichki muhitida ham tub burilishlar sodir bo'lmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktab ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, ta'lim tarbiyadagi buzilishlarning psixologik sabablarini aniqlash, shaxsdagi xulq-atvor buzilishlarni yo'qotish hamda uni oldini olishning psixologik chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini ham maqsad qiladi. Qoidaga ko'ra, psixologik xizmat tashkil etish yosh va pedagogik psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida umum-psixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar (psixolog) tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik xizmatga jalb qilingan pedagoglar esa, bu mutaxassislikni olish uchun maxsus qayta tayyorgarlikdan o'tishlari lozim. Mohiyatan, psixologik xizmat bir necha bosqichli jarayon sanalib, unda psixologik maslahat, psixodiagnostika va psixokorreksiya kabi sohalar usullaridan samarali foydalaniladi. Quyida biz ta'lim har

qanday ta'lim muhiti uchun qulay sanalgan psixologik xizmat va uning tarkibiy choratadbirlari haqida to'xtalib o'tamiz.

I.G.Kolesnikovaga ko'ra, ta'lim muhitida psixologik konsultasiya ishlarini olib borishda psixolog mutaxassis quyidagi ishlarni olib boradi:

1. Bolalar, o'qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, direktor, rektor, mudir, o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga aniq, ilmiy asoslangan maslahatlar berish;

2. Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muommila va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga etmaganlar munosabati, masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruh, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish;

3. Ma'muriyatga, bolalar, o'quvchilar, talabalarga (yotoqxonada, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik o'sishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o'g'il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qarorga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim;

4. Ota onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi;

5. Yangi tipdagi maktablarga o'rta-maxsus va kasb-hunar kolleji o'quvchilari, akademik litsey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to'g'risida ilmiy – amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

Mazkur ishlar ta'lim sub'ektlarini maktabda, litchelarda, universitetlarda o'qitish davomida psixologik pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo'ljallangandir. Diagnostik ishlar guruh yoki individual tarzda o'tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi. Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruh bo'lishi mumkin. Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ko'pincha psixologga quyidagi muammolar bo'yicha murojaat qiladilar, turli fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, tortinishlar yani o'zlarida bo'lgan malumotni ham ayta olmasliklari, bolalarning o'qiy olmasligi va istamasligi, guruhda nizoli vaziyatlar, do'slashishdagi o'zaro muommolar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqati va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo'llari, o'quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish. Psixolog o'quvchi yoki talaba yoshlar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to'g'ridan to'g'ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va ota-onalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari bo'yicha maslahat beradi, bu bevosita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o'zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o'zaro munosabatni o'rnatish yotadi. Bunda psixolog – maslahat beruvchi, o'qituvchi, ota-ona – maslahat beriluvchi, o'quvchi mijoz roliga bo'ladi. Lekin psixologik maslahat o'zi nimaligi va aynan nima haqida maslahat berish haqida yagona tushuncha yo'q, umumiy masalaga qarab muommoga qarab maslahat beriladi yani ijobiy tarafga yo'naltirib yuboriladi. Kollejlardagi yoki akademik litseylardagi psixolog ishi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Psixolog aniq o'quv muassasasidagi o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlarining, rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo'ladi. U har bir o'quvchi yoki o'qituvchining o'zinigina emas, shaxslararo munosabatning murakkab sistemasini ham ko'radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi o'z sohasini yaxshi biluvchi psixolog mutaxassisning sifatlari quyidagicha namoyon bo'ladi. O'quvchi muammolari bo'yicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi, maslahat berishning asosiy ahamiyati ana shunda.

- Psixolog o'quvchilar va talabalarining psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va etuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam ko'rsatadi

- Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, hunar bilim yurti tinglovchilari yangi tipdagi maktab, oliy o'quv yurti talabalarida uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni diagnostika qiladi. Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi. Assosial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomanlik, alkogolizm, o'g'rilik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi. Iqtidorli talabalar, yosh mutaxassislarni tanlashda ishtirok qilish ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish va unga asoslanib, ularga nafaqalar belgilashda ishtirok etadi va hokazo.

Psixolog konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Pedagogik jamoa o'quvchi psixik va shaxsiy xarakteristikalarini turli tomondan ko'rsatish, bunda albatta ijobiy kuchli tomonlarni ta'kidlash joiz. Kuzatish, suhbat, psixodiagnostika natijalariga asoslanib, o'quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarni keltirish zarur

2. Har bir o'qituvchida o'quvchiga nisbatan ustanovkasini o'zgartirishga erishish zarur. Bu juda qiyin vazifa bo'lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish zarur, konsilium o'tkazguncha sekin-asta boshlash kerak. Ko'pincha o'qituvchi o'quvchiga nisbatan fikrini o'zgartirgisi kelmaydi. O'qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun emas, balki ongli ravishda o'z hayotini murakkablashtirgisi kelmaganligi uchun shunday qiladi.

3. Barcha o'qituvchilarning o'quvchi muammolarini, uning shaxsi mohiyatini jamoa bo'lib, tushunishlariga erishish va o'quvchini ijobiy tamonga yo'naltirishda muaffaqiyatli yondashuvini rivojlantirishda eng samarali yo'lini ishlab chiqishda muhim ekanini anglatish eng samarali yo'llaridan biridir.

Faqat ana shu holda o'quvchi foydasiga o'zaro harakat qilishlariga ishonish mumkin, o'quvchilarni ham o'qituvchi bilan munosabatini rivojlantirishda samarali bo'ladi. Ba'zi hollarda o'quvchilar o'qituvchiga tashqaridan qandaydir biron bir tarifni eshitib u haqida o'ziga xos xulosa chiqarib bazi hollarda behurmatlik qila boshlaydi yo doimiy ravishda bepisant qaraydi, bu holat ta'limda juda yomon holat, bu holatda ham ta'lim muassasasi psixologini o'rni juda katta. Bunday holatda o'quvchi shug'ullansa bunday o'quvchi bilan yana ham murakkablashadi bazi hollarda shuning uchun ham birinchi galda psixolik o'z yondashuvi bilan o'quvchini o'qituvchiga bo'lgan munosabatini to'g'ri yo'naltirib hurmat hissini shakillantira olishi kerak va o'qituvchi bilan ham suhbat olib borib o'z maslahatlarini berib masalani ijobiy tarafga yo'naltirib yuborishda psixolikni o'rni juda katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, psixologikpedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium o'quvchilarning, o'qituvchilarning va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA'LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25). 426
2. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
3. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
4. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
5. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
6. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O 'ZINI-O 'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).